



THE ECOLOGICAL SITUATION OF KARAKALPAKSTAN: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Ulbosin Jumagalievna Kurbanbaeva

PhD Candidate

Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute

Nukus Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: ecological consciousness, ecological values, ecological situation, ecological crisis.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: The article examines the ecological situation of Karakalpakstan and its impact on social life, as well as the changes arising as a result of the ecological crisis. It also considers directions for strengthening the principles of environmentally sustainable development and analyzes the interrelationship between the ecological crisis, humans, and the environment.

QORAQALPOG‘ISTONNING EKOLOGIK VAZIYATI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Ulbosin Jumag‘alievna Kurbanbaeva

Tayanch doktoranti

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Nukus, Qoraqalpog‘iston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ekologik ong, ekologik qadriyat, ekologik vaziyat, ekologik inqiroz.

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘istonning ekologik vaziyati va uning ijtimoiy hayotga ta’siri, ekologik inqiroz tufayli kelib chiqayotgan o‘zgarishlar haqida aytiladi. Shuningdek, ekologik barqaror rivojlanish tamoyillarini mustahkamlash bo‘yicha yo‘nalishlar ko‘rib chiqilib, ekologik inqiroz, inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiladi.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ КАРАКАЛПАКСТАНА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Улбосин Жумагалиевна Курбанбаева

Докторант (PhD)

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажиниёза

Нукус Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экологическое сознание, экологические ценности, экологическая ситуация, экологический кризис.

Аннотация: В статье рассматриваются экологическая ситуация Каракалпакстана и её влияние на социальную жизнь, а также изменения, возникающие в результате экологического кризиса. Также анализируются направления укрепления принципов экологически устойчивого развития и взаимосвязь между экологическим кризисом, человеком и окружающей средой.

Qoraqalpog‘iston hududi uzoq yillik ekologik inqiroz oqibatida jiddiy o‘zgarishlarga duch keldi. Orol dengizining qurishi butun mintaqaning tabiiy muvozanatini buzilishiga olib keldi. Suv tanqisligi, tuproqning sho‘rlanishi, chang bo‘ronlari va yerlarning degradatsiyasi odamlarning kundalik hayoti, sog‘lig‘i va ijtimoiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonni mintaqada faqat ekologik muammo emas, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar va madaniyatni o‘zgartirayotgan omil sifatida ko‘rishimiz mumkin. Shu sabab, mintaqadagi ekologik inqirozni ijtimoiy-falsafiy yondashuv orqali tahlil qilish ahamiyatli.

Ekologik inqiroz aholini yangi sharoitlarga moslashishga majbur qildi. Mintaqada suv resurslari kamaygani qishloq xo‘jaligi ko‘lamini qisqartirdi. Ish o‘rinlari kamaygani migratsiyaning kuchayishiga olib keldi. Aholining kundalik hayoti qiyinlashdi va ijtimoiy barqarorlik zaiflashdi. UNDP tomonidan e‘lon qilingan “Atlas of Socio-economic and Environmental Indicators in the Aral Sea Region” (2019) hisobotida Qoraqalpog‘istonda ishlab chiqarish imkoniyatlari kamayayotgani, aholining iqtisodiy imkoniyatlari toraygani aniq ko‘rsatiladi[1].

O‘z navbatida ekologik o‘zgarishlar aholi sog‘lig‘i uchun xavflarni kuchaytirdi. Aralqum cho‘lidan ko‘tarilayotgan chang tarkibida tuz, pestitsid qoldiqlari va zararli kimyoviy moddalar mavjud. Bu holat nafas yo‘llari kasalliklarini ko‘paytirmoqda. UNICEFning “Climate Landscape Analysis for Children in Uzbekistan” hisobotida bolalarda allergiya, astma va boshqa nafas yo‘llari kasalliklari ortayotgani qayd etilgan[2].

Ekologik muammolar odamlarning qadriyatlariga ham ta’sir qila boshladi. Aholi tabiatni ehtiyot qilish, suvni tejash va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik masalalarini muhim deb bilmoqda. Bu jarayon ekologik etikaga asoslangan ijtimoiy yangilanishning boshlanishi sifatida qaraladi.

Falsafiy adabiyotlarda ekologik etika masalalari keng tahlil qilingan. Hans Jonas "The Imperative of Responsibility" asarida texnologik davrda inson tabiat oldida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aytadi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ekologik qadriyatlar va ekologik ong muhim omillar sifatida qaraladi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish orqaligina ekologik xavfsizlikka erishish mumkin.

Ekologik qadriyatlar deganda, insonlar tomonidan tabiatning ahamiyati va uning resurslaridan oqilona foydalanish zaruratini anglash tushuniladi. Bu qadriyatlar jamiyatning madaniyati, an'analari va diniy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, qadimgi yunonlar tabiatni xudolarning makoni deb hisoblashgan va unga nisbatan hurmat bilan qaraganlar. Sharq falsafasida ham inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikka alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ekologik qadriyatlarni targ'ib qilish va yosh avlodga singdirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda[3].

Bugungi kunda ekologik ong dolzarb hisoblanadi, chunki ekologik muammolarning yechimi muayyan bir tomondan ijtimoiy ongda ekologik ongning o'rni bilan bog'liq[4]. Ekologik ong esa insonlarning ekologik muammolarni tushunishi, ularning oqibatlarini baholay olishi va atrof-muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etishini anglatadi. Ekologik ong ta'lim, tarbiya va axborot vositalari orqali shakllantiriladi. Ekologik ong quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bilimlar, tabiat qonuniyatlari, ekologik muammolarning sabablari va oqibatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish usullari haqidagi bilimlar;
- qadriyatlar, tabiatga, uning barcha elementlariga (hayvonot, o'simlik dunyosi, suv, havo, tuproq) nisbatan hurmat va ehtiyotkorona munosabat;
- mas'uliyat, o'z xatti-harakatlarining atrof-muhitga ta'sirini anglash va ekologik muammolarni hal etishda o'z hissasini qo'shishga tayyorlik;
- faollik, ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy harakatlarda ishtirok etish, tabiatni muhofaza qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Ekologik qadriyatlar va ekologik ong jamiyatda ekologik xavfsizlikning asosiy omillari hisoblanadi. Ular jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlarga toza muhit qoldirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. SHu bois, bu ikki tushunchani rivojlantirish hozirgi zamondagi ekologik muammolarni hal qilish uchun eng muhim vositalardan biridir.

Jonasning fikriga ko'ra, tabiat insonga tegishli resurs emas, balki avlodlar uchun saqlanishi shart bo'lgan umumiy merosdir. Bu qarash Qoraqalpog'iston sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki mintaqaning kelajagi ekologik mas'uliyat va ongli yondashuv bilan bog'liq hisoblanadi.

Chuqur ekologiya asoschisi Arne Naess esa tabiatni mustaqil qadriyat deb ko‘radi. Naessning nuqtai nazarida, tabiat insonga foyda keltirgani uchun emas, balki mavjudligi sababli qadrlanishi kerak[5].

Fikrimizcha Qoraqalpog‘istonda ekologik tiklanish jarayonlariga ayniqsa mos keladi. Chunki Orolbo‘yi hududida ekologik rehabilitatsiya nafaqat iqtisodiy manfaat, balki tabiatning ichki qadriyatini tan olish bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda ekologik xavfsizlik va ekologik barqarorlikka erishish bo‘yicha amaliy ishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan davlat tomonidan choralar ko‘rilishi alohida belgilab qo‘yildi. Bu esa so‘nggi yillarda Orolbo‘yi hududida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli amaliy ishlarni izchil davom ettirishni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi[6]. Jahon banki tomonidan 2024 yilda e‘lon qilingan “Greening the Desert” tahlilida Aralqum hududida daraxt ekish, landshaftni tiklash va chang bo‘ronlarini kamaytirish bo‘yicha yirik loyihalar haqida ma‘lumot berilgan[7].

Bu jarayonlar nafaqat ekologik muhitni yaxshilashga, balki aholi turmush sifatini tiklashga qaratilgan. Ekologik tiklanish ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta‘sir qiladi.

Davlat siyosatida ham ekologik xavfsizlik ustuvor yo‘nalishga aylandi. UNFPA tomonidan taqdim etilgan “Joint Programme for the Aral Sea Region” hujjatida Orolbo‘yi hududida barqaror rivojlanish, aholining ijtimoiy himoyasi, ekologik ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rsatilgan[8].

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida ha Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohatlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muommalarning salbiy ta‘sirini yumshatish bandi keltirilgan. Unda, Orolboyi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 2,3 million gektarga yetkazish. Orol dengizi qurigan tubida qo‘shimcha 600 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish. “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg‘armalarning bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish. Xalqaro hamkorlar bilan “Orol dengizi havzasining quyi oqimidagi degradatsiyaga uchragan yerlar holatini yaxshilash” loyihasini amalga oshirish belgilab qo‘yilgan[9].

Orolbo‘yi mintaqasi – ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi – BMTning 2021-yilda qabul qilingan rezolyutsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi «Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida»gi maxsus

rezolyutsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 29.07.2021-yildagi PQ–5202-sonli qarori). Maxsus rezolyutsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlangan bo'lib, unda siyosiy-huquqiy innovatsiyalar, ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish orqali Orolbo'yi mintaqasida tarkibiy va transformatsiyali o'zgarishlar uchun qulay muhit yaratish hamda institutsional bazani rivojlantirish nazarda tutilgan [10].

Jamiyat ekologik muammolarni chuqurroq anglayapti. Ekologik muammolarni bartaraf qilish uchun texnologik monitoring tizimlari, ekologik ta'lim, resurslarni tejash madaniyati va jamoatchilik faolligi ortmoqda. Bu o'zgarishlar mintaqaning ijtimoiy hayotida yangi qadriyatlar tizimini shakllantiryapti.

Ekologik inqirozning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar qayta ko'rib chiqilmoqda. Siz ekologik ongning o'sishini insoniyatning o'z xatolaridan xulosa chiqara boshlagani sifatida ko'rasiz. Mas'uliyat, ehtiyotkorlik va tabiatni asrash g'oyalari jamiyatning yangi ma'naviy asosiga aylanmoqda.

Orolbo'yi ekologik inqirozi mintaqadagi ijtimoiy hayotning har bir jihatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tabaqalanishdan tortib, migratsion oqimlargacha. Qadriyatlarning o'zgarishidan tortib, yoshlarning dunyoqarashigacha. Bu jarayon mintaqada falsafiy yangilanish ham sodir bo'layotganini ko'rsatadi. Insonning tabiat bilan muvozanatda yashashi barqaror rivojlanishning asosiy sharti bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Qoraqalpog'iston ekologik vaziyatining ijtimoiy-falsafiy talqini shuni ko'rsatadiki, ekologik inqiroz nafaqat tabiiy muammo, balki jamiyatning o'zini qayta qurishga undayotgan kuchli omildir. Mintaqada ekologik ongning o'sishi, mas'uliyatning kuchayishi va barqaror rivojlanish yo'lidagi amaliy harakatlar kelajak uchun ijobiy yo'nalish yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/atlas-socio-economic-and-environmental-indicators-aral-sea-region-uzbekistan>
2. Climate Landscape Analysis for Children in Uzbekistan
<https://www.unicef.org/uzbekistan/en/media/7676/file/A%20climate%20landscape%20analysis%20for%20children%20in%20Uzbekistan.pdf>
3. "Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш" дарслиги. Тошкент, 2020 йил
4. Nogaibayev I.A. Ekologiyaliq mádeniyatti qóliplestiriw ekologiyaliq bolmistin pútinligin táminlewshi faktor sıpátında // Вестник КГУ им.Бердаха. №2 (51) 2021
5. Elliott-Graves, Alkistis, "Ecology", The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Spring 2024 Edition), Edward N. Zalta & Uri Nodelman (eds.), URL = <https://plato.stanford.edu/archives/spr2024/entries/ecology/>.
6. <https://yuz.uz/news/atrof-muhit-muhofazasi-mavsumiy-masala-emas>
7. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/12/04/greening-the-desert-the-role-of-landscape-restoration-in-uzbekistan-s-battle-against-sand-and-dust-storms>

8. <https://uzbekistan.unfpa.org/en/news/launching-new-joint-programme-aral-sea-region>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son
10. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti.